Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda, oʻquvchi yoshlarning harakat faolligi keskin ravishda kamayib borayotgani, passiv hayot tarzi elementlarining shiddat bilan kuchayishi, ularning sogʻligi va jismoniy tayyorgarligiga shu jumladan, harakat faoliyatiga ham salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli umumtaʼlim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini ilmiy asosda tashkil etish va sport turlaridan samarali foydalanish, hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qaralmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “Oʻzbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida”gi PF-37-son Farmoni ijrosini taʼminlash, shuningdek, jamoaviy sport turlariga yoshlarni keng jalb qilish va iqtidorli sportchilarni saralab olish (seleksiya) hamda yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida: Quyidagilar jamoaviy sport turlarini (voleybol, basketbol, gandbol, regbi, chim ustida xokkey, suv polosi) rivojlantirishning

asosiy yoʻnalishlari etib belgilanishi aytib oʻtilgan[2]. Bularning barchasi oʻquvchi yoshlarning sogʻlom, manan yetuk shaxs boʻlib yetishishi uchun astoydil xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yoshlarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish masalalari boʻyicha oʻzbek olimlaridan Z.S. Artiqov, M. A. Aslanova, B. Gʻ. Boyboboyev, F.A. Kerimov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjayev, O.Gancharova, N.K.Roʻzmetovlar ning ilmiy ishlarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratganlar.

Voleybol bilan shugʻullanuvchi oʻquvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammosi sport pedagogikasi va yoshlar jismoniy tarbiyasi boʻyicha ilmiy tadqiqotlarda koʻp qirrali oʻrganilgan. Masalan, MDH va xalqaro olimlar voleybol sportining oʻquvchilar jismoniy tayyorgarligiga taʼsirini turli yosh guruhlari boʻyicha oʻrganib, mashgʻulot yondashuvlari va pedagogik metodlarning unumdorligini aniqlashga intilgan.

Hozirgi taʼlim tizimida jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarini tashkil etishda anʼanaviy usullardan voz kechib, zamonaviy, shaxsga yoʻnaltirilgan hamda ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarga oʻtish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, voleybol bilan shugʻullanuvchi yosh voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayonida qoʻllaniladigan pedagogik yondashuvlar nafaqat jismoniy sifatlarni takomillashtirishga, balki oʻquvchilarda motivatsiya, mustaqil fikrlash va sport faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirishga ham xizmat qilishi zarur.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy manbalarda taʼkidlanishicha, yosh voleybolchilarda jismoniy tayyorgarlik darajasi bevosita mashgʻulotlarda qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalar, metod va vositalarning mazmuni hamda ularning ilmiy asoslangan holda tanlanishiga bogʻliqdir. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, jumladan faoliyatga qaratilgan taʼlim, modulli mashgʻulot jarayonlari hamda raqamli texnologiyalarni integratsiyalash kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar oʻquvchilarning mashgʻulotlarga boʻlgan motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil harakat faoliyatini faollashtirish hamda jismoniy sifatlarning barqaror rivojlanishini taʼminlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, mashgʻulot jarayonida pedagogik monitoring va teskari aloqani tizimli tashkil etish oʻquvchilarning funksional holatini muntazam baholash, yuklamalarni oʻz vaqtida korreksiyalash hamda individual rivojlanish trayektoriyalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ortiqcha zoʻriqishlarning oldini olish, mashgʻulotlar xavfsizligini taʼminlash va sport natijalarining barqaror oʻsishini qoʻllab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan kelib chiqib, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlari tizimiga maqsadli joriy etish yosh voleybolchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish hamda sogʻlom turmush tarziga barqaror munosabatni shakllantirishning muhim ilmiy-amaliy omili sifatida baholanadi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik yondashuv. Zamonaviy taʼlim tizimida shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik yondashuv oʻquvchini taʼlim jarayonining markaziy subyekti sifatida eʼtirof etishga asoslanadi. Mazkur yondashuv taʼlim-tarbiya jarayonida oʻquvchining individual psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, qobiliyatlari va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Shaxsga qaratilgan yondashuvning bosh gʻoyasi - oʻquvchi yoshlarning har tomonlama yetuk rivojlanishini taʼminlash, shuningdek uning ichki salohiyatini roʻyobga chiqarish hamda mustaqil va ongli faoliyat yuritishga tayyor shaxsni shakllantirishdan iborat.

Pedagogika nazariyasida shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim konsepsiyasi gumanistik taʼlim gʻoyalari bilan uzviy bogʻliq boʻlib, u XX asrning ikkinchi yarmida K. Rogers, A. Maslou, J. Dyui kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida shakllangan. Mazkur yondashuvda oʻqituvchi bilim beruvchi emas, balki oʻquvchining rivojlanishini yoʻnaltiruvchi, maslahat beruvchi va pedagogik jarayonni boshqaruvchi sifatida namoyon boʻladi. Bu vaziyat jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlari vaqtida muhim ahamiyat kasbini taqozo etadi, chunki har bir oʻquvchining jismoniy rivojlanish darajasi, sogʻligi va mator imkoniyatlari bir-biridan farq qiladi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik yondashuvning asosiy tamoyillariga individuallashtirish, differensial yondashuv, faoliyatga yoʻnaltirilganlik, subyekt-subyekt munosabatlari va refleksiv faoliyat kiradi. Individuallashtirish tamoyili oʻquvchilarning yosh, jins, jismoniy tayyorgarlik va psixologik holatlarini hisobga olgan holda mashgʻulotlar mazmunini moslashtirishni talab qiladi. Differensial yondashuv esa bir xil mashqlarni turli murakkablik darajasida bajarish orqali har bir oʻquvchining imkoniyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

Jismoniy tarbiya va sport mashgʻulotlarida, xususan voleybol mashgʻulotlari jarayonida shaxsga yoʻnaltirilgan pedagogik yondashuvning bosh gʻoyasi oʻquvchilarning oʻyin faoliyatiga boʻlgan qiziqishini oshirish, ularning faolligini kuchaytirish va ijobiy emotsional muhitni paydo qilishdan iboratdir. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning individual morfofunksional, psixofiziologik va kognitiv xususiyatlarini inobatga olgan holda mashgʻulotlarni rejalashtirish va tashkil etishni taʼminlaydi. Natijada har bir oʻquvchi oʻz qobiliyati va imkoniyatlariga moslashtirilgan harakatlarni bajarish orqali muvaffaqiyat tajribasini his qiladi, bu esa motivatsiyaning barqaror oshishiga va mashgʻulotlarga faollik bilan jalb etilishiga xizmat qiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik kabi sifatlarning rivojlanishi o'quvchining individual rivojlanish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli mashg'ulotlar jarayonida yuklama hajmi va intensivligini moslashtirish, dam olish intervallarini to'g'ri belgilash shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda yuqori pedagogik samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, ularning shaxsiy va ijtimoiy sifatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalash vazifalariga to'liq mos keladi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yetakchi o'rinni egallaydi. Ushbu yondashuv voleybol mashg'ulotlari jarayonida har bir o'quvchining:

- biologik rivojlanish darajasi,
- jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichi,
- psixofiziologik holati,
- sportga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasiniinobatga olishni taqozo etadi.

Yosh voleybolchilari o'rtasida jismoniy rivojlanish darajasi keskin farqlanishi mumkin. Shu sababli mashg'ulotlarda bir xil yuklama berish ko'pincha kutilgan natijani bermaydi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa mashqlar hajmi va intensivligini individual tarzda belgilash orqali jismoniy sifatlarning samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Differensial va individual yondashuv. Voleybol mashg'ulotlarida differensial yondashuv o'quvchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasiga ko'ra guruhlarga ajratish va mashqlarni moslashtirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv ayniqsa kuch, tezkorlik va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Differensial va individual yondashuv zamonaviy pedagogia hamda jismoniy tarbiya nazariyasining muhim metodologik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning jins, yosh, psixofiziologik xususiyatlari, sog'ligi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va motor imkoniyatlaridagi individual farqlarni hisobga olishga asoslanadi. Pedagogik nuqtai nazardan differensial va individual yondashuvlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy maqsadi - har bir o'quvchining optimal rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Individual yondashuv ta'lim jarayonini alohida olingan shaxsning individual xususiyatlariga mos holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda har bir o'quvchi mustaqil pedagogik ta'sir obyekti emas, balki ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida individual yondashuv yuklama hajmi, mashqlar murakkabligi, takrorlar soni va dam olish oralig'ini o'quvchining individual tayyorgarlik darajasiga moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Natijada mashg'ulotlar samaradorligi oshib, ortiqcha zo'riqish va jarohatlanish xavfi kamayadi.

Differensial yondashuv jarayaoni esa o'quvchilarni ma'lum mezonlar asosida (jismoniy tayyorgarlik darajasi, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari, funksional imkoniyatlari va sport tajribasi) guruhlarga ajratgan holda mashg'ulotlarni tashkil etishni ifodalaydi. Ushbu yondashuv individual yondashuvga nisbatan kengroq pedagogik qamrovga ega bo'lib, bir xil maqsad va vazifalarni turli murakkablik darajasidagi vositalar orqali amalga oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida va sport to'garaklarida differensial yondashuv jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonida yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Voleybol mashg'ulotlari jarayonida differensial va individual yondashuvlar muhim pedagogik ahamiyatga ega. Chunki voleybol texnikasi va taktikasi tezkorlik, kuch, chaqqonlik va koordinatsiyaning turli darajada rivojlanganligini talab etadi. Mashg'ulotlar davomida o'yin vazifalarini, mashqlar intensivligini va texnik elementlarni bajarish murakkabligini o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish differensial yondashuvning amaliy ifodasi hisoblanadi. Shu bilan birga, alohida o'quvchilar bilan individual ishlash, ularning kamchiliklarini bartaraf etish va kuchli tamonlarini rivojlantirish individual yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, differensial va individual yondashuv asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'quvchilarning jismoniy sifatlarining barqaror va izchil rivojlanishiga, mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishining ortishiga hamda sport natijalarining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur yondashuvlar zamonaviy jismoniy tarbiya va sport metodikasining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida yetakchi metodologik yo'nalishlardan biri bo'lib, u ta'lim jarayonining yakuniy natijasini o'quvchida muayyan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasini shakllantirish bilangina cheklab qo'ymaydi, balki ushbu bilim va ko'nikmalarni real faoliyat jarayonida mustaqil va samarali qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Mazkur yondashuvda ta'lim natijasi kompetensiya tushunchasi orqali ifodalanadi, ya'ni o'quvchining nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, shaxsiy sifatlari va ijtimoiy tajribasining uyg'unlashgan holati sifatida talqin etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida, xususan voleybol mashg'ulotlarida kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning faqat texnik harakatlarni o'zlashtirishiga emas, balki o'yin faoliyatida yuzaga keladigan turli vaziyatlarni anglash, tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu yondashuv voleybolni o'rgatish jarayonida texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, psixologik barqarorlik va kommunikativ ko'nikmalarni yagona tizim sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlarida o'quvchilarda sport kompetensiyasi shakllanadi. Ushbu kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi: o'yin qoidalarini bilish va ularga rioya qilish, texnik elementlarni (to'p uzatish, qabul qilish, zarba berish, to'siq qo'yish) vaziyatga mos ravishda bajarish, jamoaviy harakatlarni muvofiqlashtirish, raqib harakatlarini oldindan bashorat qilish hamda o'yinda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari.

Voleybol mashg'ulotlarida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish jarayonida mashqlar mazmuni o'yin faoliyatiga maksimal darajada yaqinlashtiriladi. Bu jarayonda o'quvchilarga tayyor algoritmlar berishdan ko'ra, ularni mustaqil fikrlashga, vaziyatni baholashga va optimal harakat variantini tanlashga yo'naltirilgan mashqlar tizimi qo'llaniladi. Natijada o'quvchilar nafaqat texnik jihatdan, balki taktik va psixologik jihatdan ham tayyorlanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida olib borilgan voleybol mashg'ulotlari yosh voleybolchilarining jismoniy sifatlari bilan bir qatorda, ularning sportga bo'lgan motivatsiyasi, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari va jamoada ishlash madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, o'yin jarayonida mas'uliyatni his qilish, o'z imkoniyatlarini real baholash va sport faoliyatiga ongli yondashish kompetensiyaviy yondashuvning muhim natijalari sifatida namoyon bo'ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv voleybol mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik talablarga to'liq javob beruvchi metodologik asos bo'lib, u yosh voleybolchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni mustaqil, mas'uliyatli va raqobatbardosh sportchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlariga ham keng joriy etilmoqda. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor faqat jismoniy ko'rsatkichlarga emas, balki:

- harakat kompetensiyasi,
- sport texnikasini ongli bajarish,
- musobaqaviy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish,
- o'z jismoniy holatini baholash kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi.

Voleybol mashg'ulotlarida kompetensiyaviy yondashuv o'yin elementlarini o'rgatish bilan birga, o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish. Innovatsion va interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta'lim va sport pedagogikasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, u o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda amaliy faoliyatga tayyorlashni nazarda tutadi. Mazkur metodlar an'anaviy, biryoqlama axborot uzatishga asoslangan o'qitish shakllaridan farqli ravishda, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qarashga asoslanadi. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida innovatsion va interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning nafaqat jismoniy sifatlarini, balki intellektual, psixologik va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirish imkonini beradi.

Voleybol mashg'ulotlari jarayonida innovatsion metodlar, avvalo, o'quv jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, mashqlar tizimini optimallashtirish va pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, modulli o'qitish, o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar asosida mashqlar tashkil etish hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish voleybol mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi. Bu metodlar o'quvchilarning texnik-taktik harakatlarni tez va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

Interfaol metodlar esa voleybol mashg'ulotlarida o'quvchilar o'rtasida faol muloqot, hamkorlik va o'zaro ta'sirni kuchaytirishga qaratiladi. Guruhli mashqlar, juftlikda ishlash, jamoaviy topshiriqlar va rolli o'yinlar interfaol metodlarning amaliy ko'rinishlari hisoblanadi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilar jamoada ishlash, sheriklar harakatini muvofiqlashtirish, o'zaro yordam ko'rsatish va sport etikasi qoidalariga amal qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Voleybol mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanish texnik elementlarni o'rgatishda ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, to'p uzatish yoki qabul qilish mashqlarini kichik guruhlarda tashkil etish, o'yin vaziyatlarini modellashtirish va muammoli topshiriqlar berish o'quvchilarning harakat faoliyatiga ongli yondashuvini ta'minlaydi. Natijada mashg'ulot jarayonida o'quvchilar faqat takrorlash orqali emas, balki tahlil qilish va muhokama qilish orqali ham bilim va ko'nikmalarni egallaydilar.

Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlari yosh voleybolchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, ularning mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, sport faoliyatiga qiziqishini kuchaytiradi va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, mashg'ulotlarda faol ishtirok etish orqali o'quvchilarda musobaqaviy faoliyatga tayyorgarlik darajasi yuqori bo'ladi.

Xulasa qilib aytganda, innovatsion va interfaol metodlardan faydalanish voleybol mashg'ulotlarini zamanaviy pedagogik talablarga mos holda tashkil etish imkonini beruvchi muhim metodologik asos hisoblanadi. Ushbu metadlar yosh voleybolchilarining jismoniy tayyargarligini rivojlantirish jarayonini samarali, mazmunli va motivatsion jihatdan boyitilgan shaklda amalga ashirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning qo'llanilishi kengayib bormoqda. Jumladan:

- modulli mashg'ulotlar,
- o'yinli texnologiyalar,
- musobaqa elementlari asosidagi mashqlar,
- raqamli monitoring (test va baholash tizimlari) yosh voleybolchilarining mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, interfaol metodlardan foydalanilgan voleybol mashg'ulotlarida o'quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Psixologik-pedagogik yondashuv. Psixalogik-pedagogik yondashuv zamonaviy jismoniy tarbiya va sport pedagogikasida muhim metodologik yo'nalishlardan biri bo'lib, u o'quvchilarning shaxsiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va mashg'ulot jarayonini tashkil etishga asoslanadi. Mazkur yondashuvda o'quvchi shaxsining psixik rivojlanish darajasi, motivatsiyasi, emotsional holati, irodaviy sifatlari hamda jamoa bilan o'zaro munosabatlari pedagogik ta'sirning muhim obyekti sifatida qaraladi. Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilari bilan olib boriladigan voleybol mashg'ulotlarida psixologik-pedagogik yondashuv mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi [15].

Yosh voleybolchilari o'smirlikdan yetuklik bosqichiga o'tish davrida bo'lib, bu davrda ularda mustaqillikka intilish, o'zini namoyon qilish ehtiyoji, musobaqaviy faoliyatga qiziqish va ijtimoiy tan olinishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Psixologik-pedagogik yondashuv ushbu yosh davriga xos psixologik xususiyatlarni hisobga olib, voleybol mashg'ulotlarini shaxsiy qiziqishlar va ichki motivatsiya asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa o'quvchilarning mashg'ulotlarga ongli va barqaror munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi [16].

Voleybol mashg'ulotlari jarayonida psixologik-pedagogik yondashuv, avvalo, ijobiy emotsional muhit yaratish orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarda qo'llab-quvvatlovchi pedagogik munosabat, o'quvchilarning yutuqlarini e'tirof etish, muvaffaqiyatsizliklarni esa rivojlanish omili sifatida baholash ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Natijada o'quvchilarda musobaqaviy stressga chidamlilik, psixologik barqarorlik va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari shakllanadi

Psixologik-pedagogik yondashuv doirasida voleybol mashg'ulotlarida kommunikativ va ijtimoiy-psixologik ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Jamoaviy sport turi bo'lgan voleybol o'yinida o'zaro muloqot, sheriklarni tushunish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish kabi sifatlar muhim ahamiyatga ega. Guruhli mashqlar, rollarni taqsimlash va jamoaviy vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarda yetakchilik, hamkorlik va mas'uliyat hissi rivojlanadi [18].

Shuningdek, psixologik-pedagogik yondashuv o'quvchilarning individual psixik farqlarini hisobga olishni ham nazarda tutadi. Ba'zi o'quvchilar yuqori raqobat sharoitida samarali faoliyat yuritsa, boshqalari esa qo'llab-quvvatlovchi muhitda yuqori natijalarni namoyon etadi. Ushbu holatni inobatga olgan holda mashg'ulotlarda individual va differensial pedagogik ta'sir usullarini qo'llash voleybol mashg'ulotlarining samaradorligini oshiradi [19].

Ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, psixologik-pedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan voleybol mashg'ulotlari yosh voleybolchilarining jismoniy sifatlari bilan bir qatorda, ularning psixologik tayyorgarligi, o'zini boshqarish qobiliyati va musobaqaviy faoliyatga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, irodaviy sifatlar - qat'iyatlilik, maqsadga intilish va mas'uliyat hissining shakllanishi ushbu yondashuvning muhim pedagogik natijalari sifatida namoyon bo'ladi [20].

Yosh voleybolchilarining jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Motivatsiya, irodaviy sifatlar, stressga chidamlilik kabi koʻrsatkichlar jismoniy mashgʻulotlar samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar mashgʻulot jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish, ragʻbatlantirish, musobaqaviy ruhni qoʻllab-quvvatlash orqali oʻquvchilarning jismoniy imkoniyatlarini toʻliq namoyon etishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, voleybol bilan shugʻullanuvchi yosh voleybolchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar:

- mashgʻulotlar samaradorligini oshiradi,
- jismoniy sifatlarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi,
- oʻquvchilarning sportga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi,
- sogʻlom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu boisdan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni voleybol mashgʻulotlari tizimiga ilmiy asoslangan holda joriy etish yosh voleybolchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, psixologik-pedagogik yondashuv voleybol mashgʻulotlarini tashkil etishda yosh voleybolchilarining yosh va individual psixologik xususiyatlarini hisobga oluvchi, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodologik tizim hisoblanadi. Ushbu yondashuvni jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish mashgʻulotlar samaradorligini oshirish bilan birga, oʻquvchilarda barqaror sport motivatsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi

Yosh voleybolchilarida jismoniy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati yuqori ekanligi ilmiy-uslubiy jihatdan asoslandi. Shaxsga qaratilgan, individual hamda differensial yondashuvlar, kompetensiyaviy va innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish mashgʻulotlar samaradorligini oshirishi, jismoniy sifatlarning rivojlanish sur'atini tezlashtirishi hamda oʻquvchilarning sportga boʻlgan qiziqishini kuchaytirishi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 19.07.2024 yildagi PQ-274-son Voleybol sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "Oʻzbekiston - 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qoʻllab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisida"gi PF-37-son Farmoni
3. Матвеев Л. П. Теория и методика Физической културий-М.: физкултура и спорт 2008.
4. Платонов .В .Н Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимпиская литература, 2015.
5. Sidorenko E.V. Sportdagi pedagogik tahlil. - Sankt-Peterburg, 2005.
6. Bompa T., Haff G. Sport mashgʻulotlarini periodizatsiya qilish. - Human Kinetics, 2018.
7. Платонов.В.Н - Спорт тайёргарлиги назарияси Платонов.В.Н - Киев: Олимпиская литература
8. R.S.Salomov - Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Toshkent-2015. "ITA PRESS"
9. Islomov A.A. Sport oʻyinlarida chaqqonlik va tezkorlik. - Toshkent, 2016.
10. Platonov V.N., Verkhoshanskiy Yu.V. Jismoniy sifatlar va sport tayyorgarligi. - Kiyev, 2010.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №5(1)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.